




MADANIY BOYLIKLARNI NOQONUNİY AYLANISHINI OLDINI OLIŞDA VA JAVOBGARLIKNI BELGILASHDA XALQARO KONVENSIYALARNING AHAMIYATI.

Ergashev Jahongir Sheraliyevich

Bojxona instituti Maxsus-huquqiy fanlar kafedrası katta
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21131273>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 15-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 30-iyun 2026 yil

KEY WORDS

ABSTRACT

Jahon mamlakatlarida madaniy boyliklarga bo'lgan talabning yuqoriligi sababli, ularning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish imkonini beruvchi samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, uyushgan jinoyi guruhlar faoliyatiga barham berish imkonini beruvchi huquqiy ta'sir choralarni qo'llash masalalarini, bu kabi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish, muammolarni aniqlash va bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy boyliklarning noqonuniy aylanmasi tufayli Misr, Iroq va Suriya kabi mamlakatlar yiliga milliardlab dollar yo'qotayotganligi, ushbu mamlakatlardagi madaniy boyliklarning talon-toraj qilinishi ularning turistik salohiyatiga jiddiy putur yetkazganligini ko'rish mumkin¹.

Jahon mamlakatlarida madaniy boyliklarga bo'lgan talabning yuqoriligi sababli, ularning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish imkonini beruvchi samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, uyushgan jinoyi guruhlar faoliyatiga barham berish imkonini beruvchi huquqiy ta'sir choralarni qo'llash masalalarini, bu kabi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish, muammolarni aniqlash va bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy boyliklarning noqonuniy aylanmasi tufayli Misr, Iroq va Suriya kabi mamlakatlar yiliga milliardlab dollar yo'qotayotganligi, ushbu mamlakatlardagi madaniy boyliklarning talon-toraj qilinishi ularning turistik salohiyatiga jiddiy putur yetkazganligini ko'rish mumkin².

Madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish, olib chiqish va egalik huquqini boshqaga o'tkazishning oldini olish va taqiqlashga qaratilgan choralar to'g'risidagi konvensiya BMTning 1970-yil 14-noyabrda Parijda bo'lib o'tgan Maorif, fan va madaniyat bo'yicha Bosh konferensiyasida qabul qilindi³.

¹ Ross, P. (2017). The Economic Impact of Illicit Trade in Cultural Property. Journal of Cultural Economics, 41(1), p. 55.

² Ross, P. (2017). The Economic Impact of Illicit Trade in Cultural Property. Journal of Cultural Economics, 41(1), p. 55.

³ Madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish, olib chiqish va ularga egalik huquqini topshirishni taqiqlash va oldini olish chora-tadbirlari to'g'risidagi Konvensiya (Parij, 1970-yil 14-noyabr). 1-modda. <https://www.unesco.org/en/legal-affairs/convention-means-prohibiting-and-preventing-illicit-import-export-and-transfer-ownership-cultural>

Ushbu konferensiyada madaniy qadriyatlar, tamaddunlar va xalqlar madaniyatining asosiy ustunlaridan biri hisoblanishini va ular o'zining kelib chiqishi, tarixi va atrof muhiti aniq ma'lum bo'lgandagina haqiqiy qimmatiga ega bo'lishini va har bir davlat o'z hududida joylashgan madaniy boyliklarni o'g'rilik, yashirin qazishlar va noqonuniy olib chiqib ketish xavfidan asrashga majburligini hisobga oladi. Ushbu xavflarning oldini olish maqsadida har bir davlat, ham o'zining madaniy boyliklariga, ham boshqa xalqlarning madaniy boyliklariga nisbatan axloqiy majburiyatlarini yanada chuqur anglab yetishi lozimligi ta'kidlab o'tildi.

Muzey, kutubxona va arxivlar madaniyat muassasalari hisoblanib, ularning kolleksiyalari umumbashariy axloqiy prinsiplar asosida tuzilishi uchun g'amxo'rlik qilinishi lozimligi va madaniy boyliklarni olib chiqish, olib kirish va ularga egalik huquqlarining bironvga o'tishi faqatgina xalqaro konvensiyalar asosida tartibga solinishi o'ta zarur ekanligi ta'kidlandi.

Shu munosabat bilan, madaniy yodgorliklar va qadriyatlarni asrashni ham milliy darajada, ham davlatlar o'rtasida xalqaro ko'lamda tashkil etish maqsadida, 1970-yil 14-noyabrda ushbu konvensiyaga asos solindi.

Konvensiyaning 4-moddasiga asosan uning ishtirokchi - davlatlari, ushbu konvensiyaning maqsadlariga muvofiq keluvchi, quyida qayd etilgan toifadagi boyliklarni o'z ichiga oluvchi har bir davlatning madaniy meroslarini e'tirof etadi:

- ushbu davlat fuqarolari bo'lgan alohida shaxslar yoki shaxslar jamoasi tomonidan yaratilgan madaniy boyliklar va ushbu davlat hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan yaratilgan va ushbu davlat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan madaniy boyliklar;
- milliy hududda topilgan madaniy boyliklar;
- madaniy boyliklar kelib chiqqan davlatning vakolatli hokimiyat organlari roziligi bilan arxeologik, etnologik va tabiiy fanlar ekspeditsiyasi tomonidan topilgan madaniy boyliklar;
- o'z xohishi bilan almashuv natijasida ega bo'lingan madaniy boyliklar;
- madaniy boyliklar kelib chiqqan davlat hokimiyati organlari ruxsati bilan sovg'a tariqasida yoki qonuniy sotib olingan madaniy boyliklar.

Ushbu konvensiya 26 moddadan iborat bo'lib, har bir modda madaniy boyliklarni olib kirish va olib chiqish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi.

Konvensiyaning asl maqsadi uni qabul qilgan barcha davlatlar fuqarolarini madaniy boyliklarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashdir. Ushbu konvensiya ingliz, rus, ispan va fransuz tillarida qabul qilingan, barcha to'rtta matn ham bir xil kuchga ega.

Mazkur konvensiyaning 1-moddasida madaniy boyliklar toifalarga ajratilgan bo'lib, ular quyidagicha ta'riflangan:

Madaniy boyliklar deganda, diniy yoki dunyoviy jamiyatga taalluqli bo'lgan, arxeologiyaga, qadimgi dunyo tarixiga, adabiyotga, san'atga, ilm-fanga oidligi tufayli davlat tomonidan bebaho deb hisoblanuvchi, quyida keltirilgan kategoriyalarga mos keluvchi predmetlardir:

- flora va fauna dunyosining, mineralogiya, anatomiya hamda paleontologiya uchun bebaho bo'lgan predmetlarning noyob kolleksiyalari va namunalari;
- tarixga jumladan, fan va texnika tarixiga, urushlar va jamiyat tarixiga hamda buyuk milliy namoyandalar, faylasuflar, allomalar, artistlar hayoti va yirik tarixiy-milliy voqealar bilan bog'liq bo'lgan qimmatliklar va buyumlar;
- arxeologik (ochiq va maxfiy) topilmalar va kashfiyotlar;
- tarixiy va badiiy joylardan, obidalaridan olingan bo'laklar;
- 100-yil va undan avvalgi davrda zarb etilgan tangalar, muhrlar va yozuvlar;
- etnologik materiallar;
- badiiy boyliklar, jumladan kartinalar, turli materiallar asosida qo'lda yaratilgan rasm-polotnolar, kashtalar kabi buyumlar (chizmalar va qo'lda bo'yalgan maishiy tovarlar bundan istisno), turli xil materiallar asosida yaratilgan haykaltaroshlik san'at asarlari, noyob

gravyuralar, estamplar va litografiyalar, turli xil materiallardan tayyorlangan noyob badiiy buyumlar to'plami, alohida diqqatga molik tarixiy, badiiy, ilmiy, adabiy qiymatga ega bo'lgan noyob qo'lyozmalar, qadimiy kitoblar, hujjatlar va nashrlar kolleksiyasi yoki namunalari;

- pochta markalari, markalar kolleksiyalari yoki alohida namunalari to'plami;
- fono - foto va kinoarxivlar;
- 100-yil va undan oldinroq davrlarda yasalgan mebellar va qadimiy musiqa asboblari.

Ushbu konvensiyaga muvofiq ishtirokchi-davlatlarda qabul qilingan qoidalarini buzib amalga oshiriladigan noqonuniy olib kirish, olib chiqish va mulk huquqini boshqaga berish noqonuniy deb hisoblanadi.

Ahdlashuvchi tomonlar ushbu konvensiyaning maqsadlariga muvofiq keluvchi, quyida qayd etilgan toifadagi boyliklarni o'z ichiga oluvchi har bir davlatning madaniy meroslarini e'tirof etadi:

- ushbu davlat fuqarolari bo'lgan alohida shaxslar yoki shaxslar jamoasi tomonidan yaratilgan madaniy boyliklar va ushbu davlat hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan yaratilgan va ushbu davlat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan madaniy boyliklar;

- milliy hududda topilgan madaniy boyliklar;
- madaniy boyliklar kelib chiqqan davlatning vakolatli hokimiyat organlari roziligi bilan arxeologik, etnologik va tabiiy fanlar ekspeditsiyasi tomonidan topilgan madaniy boyliklar;

- o'z xohishi bilan almashuv natijasida ega bo'lingan madaniy boyliklar;
- madaniy boyliklar kelib chiqqan davlat hokimiyati organlari ruxsati bilan sovg'a tariqasida yoki qonuniy sotib olingan madaniy boyliklar.

Ahdlashuvchi tomonlar madaniy boyliklarini noqonuniy olib kirish, olib chiqish va boshqaga mulk egaligi huquqini berishning oldini olishni ta'minlash maqsadida, hududlarida, har bir mamlakatning sharoitini hisobga olgan holda, agar quyida qayd etilgan vazifalarni samarali ravishda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan miqdorda malakali xodimlar bilan ta'minlangan xizmatni tashkil etmagan bo'lsa, madaniy boyliklarni himoya qiluvchi bir yoki bir necha bunday xizmatlarni tashkil etish majburiyatini oladi:

- madaniy merosni himoya qilishni, xususan, muhim madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish, olib chiqish va unga mulk egaligini boshqaga berishning oldini olishni ta'minlab beruvchi qonunchilik va reglamentni belgilab beruvchi matnlar loyihalarini ishlab chiqishga yordam berish;

- olib chiqilishi milliy madaniy merosni sezilarli ravishda qashshoqlashtirib qo'yadigan muhim, davlatga qarashli va xususiy madaniy boyliklar milliy himoyalash reestri bazasini tuzish va yangilab borish;

- madaniy boyliklarni asrash va ommalashtirish uchun zarur bo'lgan ilmiy va texnikaviy muassasalarni (muzeylar, kutubxonalar, arxivlar, laboratoriyalar, ustaxonalar va boshqalar) tashkil etishga yoki rivojlantirishga yordam berish;

- arxeologik qazilmalar uchun nazoratni tashkil etish, belgilangan madaniy boyliklarni "in situ" - o'z joyida asrashni va kelajakdagi arxeologik qazilmalar uchun qoldirilgan ba'zi hududlarni himoya qilishni ta'minlab berish;

- manfaatdor shaxslar (saqlovchilar, kolleksionerlar, antikvarlar va shu kabilar) uchun ushbu Konvensiyada shakllangan axloqiy prinsiplarga javob beruvchi qoidalar o'rnatish va bu qoidalariga rioya qilinishi ustidan kuzatib borish;

- barcha davlatlarning madaniy boyliklariga nisbatan hurmat uyg'otish va mustahkamlash maqsadida tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish va ushbu konvensiya qoidalarini ommalashtirish;

- madaniy boyliklar yo'qotilishi bilan bog'liq har qanday holatlarni hammaga ma'lum qilish.

Ahdlashuvchi tomon quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- eksportchi-davlat, birorta yoki bir nechta madaniy boyliklarni olib chiqishga ruxsat berishni tasdiqlaydigan tegishli guvohnomani ta'sis etish. Ushbu guvohnoma mavjud qoidalarga asosan olib chiqilayotgan bitta yoki bir nechta madaniy boyliklarga ilova qilib berilishi lozim;
- yuqoridagi guvohnoma ilova etilmagan madaniy boyliklarning o'z hududidan chiqarilishini taqiqlash;
- tegishli yo'llar bilan, ushbu taqiqlashni jamoatchilik diqqatiga, xususan, madaniy boyliklarni olib chiqishi yoki olib kirishi mumkin bo'lgan shaxslar diqqatiga yetkazish.

O'zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyaga 1995-yil 22-dekabrda a'zo.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, madaniy boyliklarni himoya qilish masalasi jahon hamjamiyati diqqat - e'tiborini ancha avvalroq tortgan edi. 1954-yil

14-mayda Gaaga shahrida "Qurolli mojarolar sodir bo'lganda madaniy boyliklarni himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya qabul qilingan edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 22-dekabrda 180-1 sonli qarori bilan ushbu konvensiyaga ham a'zo bo'lgan.⁴

O'zbekiston Respublikasining "Madaniy boyliklarni olib chiqish va olib kirish haqida"gi qonuniga muvofiq esa madaniy boyliklar - moddiy dunyoning milliy, tarixiy, badiiy, ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa madaniy ahamiyatga molik ko'char ashyolari tushuniladi, ya'ni ushbu tarif konvensiyada belgilanganidan keng ma'noni anglatadi.

Shu munosabat bilan, milliy qonunchilikka muvofiq madaniy boyliklarga berilgan tarifni xalqaro huquq me'yorlariga muvofiqlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bu borada, xalqaro hamkorlik zarurligi haqida fikr bildirib professor P.Boylan san'at bozorining xalqaro miqyosda yetarli darajada tartibga solinmaganligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, turli mamlakatlardagi qonunchilikdagi farqlar va muvofiqlashtirishning yo'qligi madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishni qiyinlashtiradi⁵.

Shuningdek, internetning rivojlanishi madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Onlayn platformalar orqali savdo qilish, sotuvchi va xaridorning anonimligini saqlash imkonini beradi, bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun qiyinchiliklar tug'diradi⁶.

Madaniy boyliklar bozorining yetarli darajada tartibga solinmaganligi ushbu sohadagi noqonuniy faoliyatning rivojlanishiga va madaniy merosning yo'qotilishiga olib keladi.

Bu muammoni hal qilish uchun xalqaro va milliy darajada qonunchilikni takomillashtirish, san'at bozori ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, shuningdek, internet orqali amalga oshirilayotgan noqonuniy savdoga qarshi kurashish choralarini ko'rish zarur.

Bundan tashqari, madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishning samaradorligi ko'p jihatdan ushbu sohadagi huquqiy bazaning mukammalligi va uning amaliyotda to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq.

Bu borada qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlar va noaniqliklar muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda. Madaniy meros huquqi bo'yicha yetakchi ekspert O'Keefe ko'plab mamlakatlarda madaniy boyliklarni muhofaza qilish bo'yicha qonunchilik yetarli darajada rivojlanmaganligi

⁴ 1954-yilda imzolangan Qurolli mojarolar chiqqan hollarda madaniy boyliklarning himoya qilinishi to'g'risidagi Konvensiya <https://lex.uz/docs/2688601>

⁵ Boylan, P. J. (2015). Review of the Current State of Affairs with Regard to the Illicit Traffic in Cultural Property. In *Researching the Antiquities Trade*. p. 19.

⁶ Hardy, S. A. (2015). The Real and the Virtual: The Illicit Trade in Cultural Objects, the Media and the Internet. In F. Desmarais (Ed.), *Counterfeiting, Organized Crime, and the Law*. p. 145.

yoki samarasizligini, bunday bo'shliqlar jinoyatchilar uchun qulay imkoniyat yaratishini ta'kidlaydi⁷.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida madaniy boyliklarni muhofaza qilish va ularning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar mavjud.

Mamlakatimizda madaniy boyliklarni olib kirish va olib chiqish masalasi O'zbekiston Respublikasining 1998-yildagi "Madaniy boyliklarni olib chiqish va olib kirish haqida"gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 23-martdagi O'zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarini tartibga solish to'g'risida"gi 131-sonli qarori bilan tartibga solinadi⁸.

Biroq, ularda ayrim bo'shliqlar va noaniqliklar mavjud bo'lib, ular huquqni qo'llash amaliyotida qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Masalan, O'zbekistonda ehtiyotsizlik orqasida tarixiy yoki madaniy boyliklarga zarar yetkazish uchun jinoiy javobgarlikning mavjud emasligi, bu turdagi huquqbuzarliklar uchun jazo qo'llashda turli hil yondashuvlarga ham olib keladi.

Shuningdek, jazoning muqarrar emasligi ya'ni madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun belgilangan jazolar yetarli darajada og'ir bo'lmasligi yoki amaliyotda ularning qo'llanilmasligi jinoyatlarning oldini olishda samara bermaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini quyidagi mazmundagi yangi modda va qo'shimchalar bilan to'ldirish taklif etiladi:

Xorijiy davlatlar tajribasi asosida "227²⁸-modda. Madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish;

Mjtkning 64¹-moddasiga, Moddiy madaniy meros ashyolari hamda obyektlariga nisbatan hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lish, deb o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini qo'yidagi mazmundagi yangi modda va qo'shimchalar bilan to'ldirish taklif etiladi:

"169²-modda. O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar xalqlarining madaniy boyliklarini O'zbekiston Respublikasi hududiga qaytarmaslik";

"132-moddasiga Moddiy madaniy meros ashyolari hamda obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish, deb o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish".

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlarga asoslanib, madaniy boyliklarga shikast yetkazish va O'zbekiston Respublikasidan qonunga xilof ravishda olib chiqish bilan bog'liq qilmishlar uchun javobgarlikni belgilovchi alohida normalarni milliy qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Mazkur takliflar, yurtimiz hududidagi madaniy, tarixiy, arxeologik qimmatga ega bo'lgan ashyolarni va kolleksiyalarga shikast yetkazmaslik, ularni bojxona chegarasidan noqonuniy o'tkazish bilan bog'liq huquqbuzarliklarni oldini olish bilan birga mamlakatimizdagi madaniy boyliklarni himoya qilishda va kelajak avlodga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

⁷ O'Keefe, P. J. (2007). Commentary on the UNESCO 1970 Convention on Illicit Traffic (2nd ed.). Institute of Art and Law. p.12.

⁸ O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida" 678-I-son Qonuni, <https://lex.uz/docs/24377> va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarini tartibga solish to'g'risida" qarori 23.03.1999-yildagi 131-son <https://lex.uz/docs/279299>